

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:15 (67076)
2016-yil
11-aprel

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

Yaqinda Respublika markaziy
ko'zi ojizlar kutubxonasida

KITOB MO'JIZAGA CHORLAYDI

deb nomlangan
kitob bayrami
bo'lib o'tdi.



Tadbirida respublika bolalar nashrlari ijodiy xodimlari, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 229- va 238-umumta'lim maktabi o'quvchilari hamda ularning ota-onalari ishtirok etishdi.

Bayram tadbiri doirasida «Bolalarga bering dunyoni», «Ertaklarning sehri olami» nomli kitob ko'rgazma va yarmarkasi tashkil etildi.

– Faylasuflardan biri «Kitoblar zamon to'liqlarida suzuvchi va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir», degan edi. Darhaqiqat, insonning komillikka erishishida kitobning o'рни beqiyosdir. Bu kabi tadbirlarni o'tkazishdan asosiy maqsad ham o'quvchilarimizni kitobxonlikka jalb etishdan iborat, – deydi kutubxona bo'lim mudiri Gavhar opa Mardonova.

JAMOLIDDIN

Ushbu sonda:

DIQQAT! DIQQAT!

«ONAJONIM TABIAT»

insholar va
rasmlar tanloviga
marhamat

2-bet

BOLALIK KUNLARIMDA

3-bet

«BOYCHE- CHAK»NING QUVONCHI

7-bet





DIQQAT! DIQQAT!

«ONAJONIM TABIAT»

insholar va rasmlar tanloviga marhamat!

Jonajon yurtimiz tabiati, atrof-muhit, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, ekologiyani yaxshilash kabi ezgu ishlarda siz aziz o'quvchilar faolligini oshirish, ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish, shu bilan birga, qalbingizda ona tabiatga yanada mehr uyg'otish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston ekologik harakati, O'zbekiston davlat tabiat muzeyi hamda O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi» hamkorligida «Onajonim tabiat» an'anaviy insholar va rasmlar tanlovini o'tkazadi. Tanlov shartlari quyidagilardan iborat:

1. O'zingiz yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, shahar tabiati, ekologik muammolari hamda ularni bartaraf qilishga doir fikr-mulohazalaringiz asosida insho, mavzuga oid chizilgan rasmlar (insholar hajmi 3 qog'ozdan oshmasligi lozim).



Andijon shahridagi 1-umumta'lim maktabining 4-«G» sinf o'quvchisi Asilbek Muxtorov tabiat manzarasini rasmlarida ifodalaydi.



Ular «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan tanlovlarda faol ishtirok etishadi.

ZUBAYDA o'lgan suratlar

2. Siz tahsil olayotgan maktab qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi faoliyati haqida qisqacha ma'lumot.

Qadrli tabiatsevar o'g'il-qizlar! Tanlovda faol ishtirok etishga shoshiling. Ijodiy ishlaringizni 2016-yilning 15-may sanasiga qadar quyidagi manzilga yo'llang:

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30 uy. Indeks: 100129 e-mail: info@tong yulduzi.uz.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon, faks: 244-63-08.

«Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanloviga, deb yozishni hamda siz bilan bog'lanish uchun telefon raqamingizni ko'rsatishni unutmang. Tanlov 2016-yil 5-iyun – «Butunjahon atrof-muhit kuni» arafasida yakunlanadi. G'oliblar diplom hamda homiy tashkilotlarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Shukrona

BAG'RIKENGLIK SHUKUHI

O'ZBEKONA HAYOTIMIZ CHIROYLI-DA...



Tinchlik va osoyishtalik hukm surayotgan jannatmakon diyorimizda bugungi kunda turli millat vakillari totuv-inoq istiqomat qilib kelishadi.

Uyim derazasidan tashqariga boqib, yurt osudaligiga shukrona keltiraman... Hayotimiz tinch, oydin kechalari nurafshon...

Shukurki, bugun yurtimda ezgu rejalar qilinmoqda, ulug' tilaklar aytilmoqda. Elning saodatli farzandlari ardoqlanmoqda.

Bir farzandga yetti mahalla ota-ona, deya dilbandlarga qo'l tutib, madad bermoqda. Bunday g'amxo'rliklarni ko'rib, baxtim shukronasiga so'z topolmayman. Bu kunlarni qadrlamoq har birimizning burchimizdir.

Keksalarimiz duoga qo'l ochar ekan, eng avvalo, yurt tinchligini, ko'ngillar pokligini so'raydi. Turmushimiz chiroyli bo'lishi, dillar obodligidan boshlanishi rost. Men ham shu obod elning bir bo'lagi ekanimdan faxrlanaman.

Bugun shogirdlarim xorij tilida o'z fikrini jahon maydonlarida baralla ayta olishiga ishonayotgan ustozman.

Eh, o'zbekona hayotimiz qanday chiroyli-al

Hamroxon MAMATQULOVA,
Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi
30-umumta'lim maktabining fransuz tili fani
o'qituvchisi

KELAJAK EGALARI

Buxoroda «Sog'lom avlod – millat tayanchi» shiori ostida viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va qator tashkilotlar hamkorligida «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Mazkur festivalga tanlovning quyi bosqichlarida viloyatdagi mavjud 14 ta «Barkamol avlod» bolalar markazi va umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan ijodiy to'garaklardan ishtirok etgan 10 mingdan ziyod o'quvchilarning 140 nafari saralab olindi. Ishtirokchilar tasviriy san'at, liboslar dizayni, munchoqli bezak, badiiy to'qish, do'ppido'zlik, gilamdo'zlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, yumshoq o'yinchoqlar va qo'g'irchoqlar yo'nalishlarida o'z ijodiy ishlarini namoyish etdi.

Viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi tarbiyalanuvchisi Munisa Yo'ldosheva tasviriy san'at yo'nalishida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Nozima Abduhamidova, Malika Bozorova, Zuhro Zuvaydinova, Nozimjon Razzoqov, Ozodjon Narzullayev, Aziza Isomova, Dilnora Ahmadova, Nigora Ne'matova o'z yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

G'oliblar festivalning respublika bosqichida qatnashadi.

NURBEK

Ularning milliy urf-odatlarini, an'analari davom ettirishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda fuqarolar va millatlararo totuvlik, hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Farg'onada Vatanimiz mustaqilligining 25 yilligi hamda «Sog'lom ona va bola yili»ga bag'ishlab «O'zbekiston – umumiy uyimiz» respublika VI do'stlik va madaniyat festivalining o'tkazilishi ayni muddao bo'ldi.

Tadbirda Farg'ona tumanining «Log'on» qishloq fuqarolar yig'ini hamda Rishton tumanida «Milliy va diniy bag'rikenglik – barqarorlik omili», «Quadratimiz – birlik va hamjihatlikda» mavzularida davra suhbatlari uyushtirildi. «Sog'lom avlod tarbiyasida millatlararo totuvlikning o'rni» mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar hamda «Biz – sening farzandlaringimiz, O'zbekiston!», «Sog'lom ona, sog'lom bola – millat baxti» nomli ko'rgazma tashkil etildi.

Festivalda mehr-oqibat va bag'rikenglik ulug' ne'mat ekanligi ta'kidlandi. Mustaqilligimizni asrab-avaylashni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar tadbirga o'zgacha fayz bag'ishladi.

Xurshida SULAYMONOVA

«BOLALIK KUNLARIMDA...»

Bolalik yillarini xotirlash hamisha yoqimli. Ayniqsa, bola qalbli insonlar bir zumda o'sha davrga qaytadi-qoladi, yodida qolgan voqealarni o'zgacha zavq, hayajon bilan eslashadi.

Keling, ana shunday insonlardan biri bolalarning sevimli shoiri Miraziz A'zamning beg'ubor xotiralari bilan tanishaylik, hayoti va ijodiga bir nazar solaylik.

*Juda-juda sip-silliq,
Maktab devori.
Ko'rsang tutib qoladi,
Rasm xumori.
Boplab chizdim devorga
Mushuk rasmini.
Keyin bitta qo'g'irchoq,
Ko'ring, aslini...*

Miraziz A'zam haqida gap ketganda, uning «G'alati tush» nomli she'ridagi ushbu misralar beixtiyor tilimga kelaveradi. Sodda, ravon, misralari shox, o'ynoqi she'rlari o'quvchining tiliga o'rnatib qoladigan, yuragidan joy oladigan shoir bobogiz bu yil 80 bahorni qarshiladilar. Bolalik olamiga yaqin insonlar sira qarimaydilar, deganlaricha bor ekan. Miraziz A'zamning ham hamon qo'lda qalam, ko'nglida ijod zavqi.

Nabiralara ko'ngil quvonchi

KECHALARI ERTAK, RIVOYAT TINGLAB...

1936-yilning 29-martida Toshkentning eski mahallalaridan birida ziyoli oilada dunyoga keldim. Qalbidagi adabiyotga bo'lgan ishtiyoq onam Xatira Muhammadkarim qizining ta'sirida uyg'ongan bo'lsa, ajabmas. Boisi, bolaligidan kechalari onam kuylagan qo'shiq va termalarni, so'zlagan doston-u ertaklarni tinglab ulg'ayganman.

Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan suronli yillar. Otam ko'ngilli bo'lib urushga ketgan. Zamon juda og'ir bo'lishiga qaramay, onam mening badiiy kitoblar o'qishim, kino va teatrlarga borishim uchun sharoit yaratishga intildilar. O'rta maktabni oltin medal bilan tamomladim. Oliy ma'lumotni Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)da olib, yangi ochilgan televideniya muharrirlik qila boshladim.

Keyinchalik G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyatida katta muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas'ul kotib vazifalarida faoliyat ko'rsatib, shoir, noshir, tarjimon, dramaturg va maqolalanavis sifatida qalam tebratdim. Ilk she'rlarim 1960-yilda «G'uncha» jurnalida chop etildi. Keyinchalik bosmadan chiqqan «Aqli bolalar», «Senga nima bo'ldi?», «G'alati tush», «Yer aylanadi», «Yerga dovrug' solamiz», «Bir cho'tak yong'oq», «Qirq bolaga qirq savol», «Yerga bolalarga atalgan she'riy to'plamlarim», «Eng yorug' yulduzlar» nomli maktab sahnasi uchun mo'ljallangan pyesalar, tarixiy hikoyachalar, maqolalar to'plamim nashrdan chiqdi. Ularning jajji kitobxonlar tomonidan iliq qarshi olingani meni yanada ko'proq ijod qilishga undadi.

2005-yilda bolalar uchun yozilgan asarlarimning «Saylanma» holida chop etilishi orqali yosh kitobsevarlarga aytar gaplarim ularga to'laroq yetib bordi, deb o'ylayman.

Undagi she'rlarim orqali bolalarni qalbi va tuyg'ulari yordamida olamni, odamlarni bilishga, yaxshilik va yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug'lashga chaqirdim, undadim. Nizomiy Ganjaviy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy singari jahon adabiyoti namoyandalari asarlari, buyuk olim va mutafakkir Abu Homid G'azzoliyning «Mukoshafat-ul qulub» asari, shuningdek, rus, nemis, fransuz, ingliz, turk, italyan va boshqa 60 dan ziyod xalqlar asarlaridan qilgan tarjimalarim orqali o'zbek kitobxonlarini jahon adabiyoti durdonalaridan, bolalar she'riyati namunalariidan bahramand qilishga intildim.

Bolalar davrasida, ijodiy uchrashuvlarda ko'p bo'lamiz. Ular mendan, ijodkor bo'lish uchun nima qilish kerak, deya so'rashadi.

Bolajonlarim, eng avvalo, bugungi tinch, osoyishta, farvon hayotimizning qadriga yeting. Biz ko'rgan qiyinchiliklarni siz aslo ko'rmang. Vaqtni, sizlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni, imkoniyatlarni qadrlashni o'rganing. Eng muhimi, ko'proq kitoblar o'qing, bolalikdanoq biror kasb yo hunarga astoydil mehr qo'ying, maqsad bilan yashang va bu yo'lda izlaning, deyman.

Ota-bobolarimizning azaldan hurlikka, mustaqillikka intilib yashagani, unga erishish yo'lida kurashib kelgani bizga tarixdan ma'lum. Asarlarida hurriyat sog'inchini kuylagan Miraziz A'zam ham Vatanimiz mustaqilligini quvonib qarshi oldi. Istiqloq yillarida uning ijodida ham yangi-yangi sahifalar ochildi.

Sening zo'rlik-la topgan,
Etil oshingdan ko'ra
Men o'zim kuylab topgan,
Maysam yaxshi ming karra.

To'g'ri, sening ining zo'r,
Hashamatli va go'zal.
Lek, menga shoxlar ichra,
Kamtarin inim afzal.



Z. MAMATQULOVA olingan suratlar

Qalbidagi bolalar adabiyotiga bo'lgan ishtiyoq, «G'uncha» jurnali sari yetakladi va bu muqaddas dargohda bir necha yillar mobaynida adabiy xodim bo'lib mehnat qildim. Shu ziyo maskanida men kichkintoylar olamini kashf etdim. Bolalar – bu hayotning eng pokiza qismi ekanligini, ularga ko'rsatilgan mehr, ularga sarf etilgan mablag' ertaga xalqimizga baxt va farovonlik bo'lib qaytishini his qildim va bolalar uchun yana ham ko'proq yoza boshladim.

BURGUT BILAN BULBUL

(Masal)

Burgut derki Bulbulga:
– Sen tengi yo'q kuychisan,
Kuychisan-u garchi san,
Yolchimaysan ul-bulga.

Ko'ylaging bitta kulrang,
Yupungina qanoting,
Yur, men bilan yashasang,
Zo'r o'tadi hayoting.

Zarga ko'mib tashlayman,
Sening egni-boshingni.
Boplab boqa boshlayman,
Etili qilib oshingni...

Bulbul derki Burgutga:
– Kerakmas etli oshing,
Zardo'zi egni-boshing,
To'yaman maysa o'tga.

Feruz JALILOVA yozib oldi

Bolajonlar, siz bilan «A'lochilar sahifasi»da uchrashib turganimizdan mamnunmiz. 3-chorakni tugatib, 4-chorak sari dadil odimlab bormoqdaziz. Bu chorak eng qisqasi bo'lib, bu oraliqda barcha fanlarni a'lo bahoga o'qishingiz barobarida imtihonlarga ham tayyorlanishingiz lozim. Bu borada sizlarga muvaffaqiyatlar tilaymiz. Keling, endi gazetamizning navbatdagi a'lochilari bilan tanishishda davom etamiz:

«TONG YULDUZI» A'LOCHILARI

SINGLISIDAN QOLISHMAGAN QIZ

Qashqadaryolik opa-singillar Nasibaxon va Madinabonu Boyqobilovalarni yaxshi tanisiz. O'tgan sonlarimizdan birida Madinabonuni «A'lochilar sahifasi»da rasmini ko'rgan bo'lsangiz kerak. Uning opasi Nasibaxon ham singlisidan qolishmagan holda, gazetamizda o'z maqolalari bilan qatnashib turadi. Nasibaxon Qarshi shahridagi 5-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qiydi. Ishonamizki, u naafaqt maktabda, balki jamoat ishlarida ham a'lochilar safidan o'rin oladi.



RANGLAR BILAN DILLASHGIM KELDI

– Men rassom bo'lmoqchiman, – deydi Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi Hamidullo Abdullayev. Hamidullo maktabda tashkil qilingan «Tasviriy san'at» to'garagining faol a'zosi. Ustozi Shuhratali aka Akbarov tasviriy san'atga qiziquvchi o'quvchilarga turli janrlarda rasmlar chizish-u bo'yoqlarni to'g'ri tanlay bilishni qunt bilan o'rgatib boradilar. Hamidulloning chizgan rasmlarini ko'p marta gazetada tomosha qilgansiz. Siz ham rasm chizishga harakat qilib ko'ring. Bu qo'lingizdan keladi.



Bilimlar mamlakatining kichik bilimdonlari! Sizlar bilan yana «Tong yulduzi» a'lochilari» sahifasida ko'rishguncha, deymiz.

OZODA opangiz

BIZ JURNALIST BO'LAMIZ

Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 293-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchilari a'lo o'qish va jamoat ishlarida qatnashish bilan birga, tumandagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Yosh jurnalist va notiq» to'garagining faol a'zolaridir. To'garak a'zolari kelajakda jurnalist bo'lishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan. To'garak rahbari Zilola opa Karimovadan jurnalistlikning eng nozik sirlarini qunt bilan o'rganishyapti. Ular yozgan maqolalarini Siz aziz tengdoshlariga ilinshibdi. Qani, yosh qalamkashlarning ijodiga bir baho bering-chil!

«Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan Chilonzor tumanida joylashgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'rtasida «Urf-odat, an'ana va qadriyat» loyihasi doirasida

«BALLI, YOSHLAR!»

ko'rik-tanlovi o'tkazildi.



Unda mezbon Chilonzor matbaa kasb-hunar kolleji-ning – «Assalom, Navro'z!» kabi ko'plab kollej jamoalari tanishtiruv, viloyatlarning milliy urf-odatlari, qadriyat-lari va milliy liboslar hamda xalq og'zaki ijodidan namunalar shartlari bo'yicha o'zaro bahslashishdi.

Qiziqarli o'tgan bellashuvda «Sog'lom avlod»

jamoasi 1-, «Nihol» jamoasi 2-, «Navbahor» jamoasi 3-o'rinlarni egalladi.

G'oliblarga hakamlar tomonidan esdalik sovg'alar topshirildi.

– Bunday tadbirlarni o'tkazishdan maqsad, yoshlarni Vatanga, milliy qadriyatlarimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat, – deydi Chilonzor tuman hokimi o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Nigora Abdurahimova.

Sh. KAZAKBAYEV

ONA

Ona dunyodagi eng ulug' zotdir. Ularning mehnatlari, zahmatlari ulug'lanadi.

Onalar bizni kelgusida komil inson, ona Vatanimizga munosib farzand bo'lib voyaga yetishimizni istashadi. Bu orzularini ro'yobga chiqarish uchun esa biz mas'ulmiz. Buning uchun ko'p narsa kerakmas, aslida, yaxshi o'qishimiz, namunali xulq egasi bo'lib, tanlagan kasbimiz tufayli yurtimizga nafimiz tegadigan inson bo'lsak, bas. Onalar bundan ortig'ini so'rashmaydi.

Aziz tengdoshlar, onalarimizning, Vatanimizning oldidagi mas'uliyatimizni, burchimizni unutmaylik!



Malika JOVLYEVA



YURTIM BILAN FAXRLANAMAN

Ha, aziz tengdoshlar, men mana shunday go'zal va obod yurtda tug'ilganimdan faxrlanaman. Tarixi uzoq yillarga borib taqaladigan ona diyorumiz boshidan ko'p kechinmalarni o'tkazgan.

Joylarda misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmogda. Tinch va osoyishta, obod yurtimizga hech qachon ko'z tegmasin.

BO'SH VAQTIMIZNI MAZMUNLI O'TKAZAMIZ

Markazimizda juda ko'p tadbirlar o'tkaziladi. Har bir tadbirda to'garak a'zolarining o'z qo'llari bilan tayyorlagan ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etiladi. Markazimizda faoliyat ko'rsatayotgan folklor jamoasi ishtirokchilarining chiqishlari ham ko'pchilikda katta taassurot qoldiradi. Bunday tadbirlarning o'tkazilishida markaz rahbari Ozod aka Shermatov bosh-qosh.



Ruzshona AHMADIONOVA

ORASTA QIZLAR BAHSI

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 183-umumta'lim maktabida o'quvchi-qizlar o'rtasida «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Dastlab ishtirokchilar dolzarb mavzularda tayyorlab kelgan slaydlarini namoyish etib, o'zlarining loyihalari bilan chiqishlar qilishdi. So'ngra tanishtiruv, savol-javob, kompyuter savodxonligi, pazandalik va nihoyat erkin mavzuda o'zaro musobaqalashdilar.

– O'quvchi-qizlarimizni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab pedagoglarining xizmatlaridan keng foydalanishimiz kerak, – deydi ushbu ta'lim muassasasi rahbari Ilmira opa Xadjjalimova. – Mahalla faollari bilan bo'lgan hamkorligimiz o'quvchilarimizni har jihatdan yetuk shaxs bo'lib kamolga yetishida ijobiy samara bermogda.

Qiziqarli va qizg'in tarzda o'tgan

ushbu bellashuvda 179-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi Maftuna Boymirzayeva faxrli 1-o'rinni egalladi va shahar bosqichiga yo'llanma oldi.

Bu kabi ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi o'quvchi-qizlarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamoliddin ABDULLAYEV



N. SUL TONOV o'lgan shtetlar



Bugungi kunda yurtimizda har tomonlama barkamol yoshlar safi yanada kengayib bormoqda.

MOHIRANING ORZUSI BALAND

Ana shunday iste'dodli qizlardan biri Mohira Ahmedova poytaxtimizdagi 244-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qiydi. U izlanuvchanligi, ilmga chanqoqligi bilan tengdoshlari orasida ajralib turadi. Mohiraxon 2014-yil «Yilning eng chiroyli husnixat egasi» hamda ona tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Maktabimizda barcha fanlardan to'garaklar tashkil qilingan. Men ham ayni paytda ingliz va rus tillarini puxta o'rganmoqdaman. Bundan tashqari, badiiy kitoblar mutolaa qilishni, she'r yozishni yaxshi ko'raman. Yaqinda sevimli adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» nomli

asarini o'qib, bir olam taassurot oldim, – deydi Mohira. – Ota-onam menga doimo o'qi, izlan, bilmaganingni so'rab, bilganlaringni boshqalardan ayama, sinfdoshlaring bilan ahilinoq bo'l, – deya nasihat qiladi. Men ular berayotgan o'g'itlarni doimo qalbimda saqlayman. Zero, inson yaxshilikdan unib o'sadi, kamolga yetadi.


Orzulari bir olam bo'lgan bu intiluvchan tengdoshingiz kelajakda insonlarning koriga yaraydigan, hammaga birdek mehribon, qo'li yengil shifokor bo'lishni niyat qilgan. Biz Mohiraga, ezgu orzularing hamisha yo'ldoshing bo'lsin, deya tilak bildiramiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Lesson 82

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Crossword




Write these words in English: 1. Ramz. 2. Janob. 3. Kulgili. 4. Muharrir. 5. Kamtar. 6. Taxt, podsholik. 7. Rasadxona.

Rahima NE'MATOVA, the pupil of school number 8 in Shurchi district, Surkhandarya region

Picture game

Do you know the names of these things in the picture?



Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school number 54 in Urtachirchik district, Tashkent region
Painter: YOQUBBEK

Miracles of mother nature

(Ona tabiat mo'jizalari)

Put the right word to these explanations:

the sky, the moon, the sun, air, stars.

- ... - is hot and great thing which we can't live without its light.
- ... - are a lot and seems only in the evenings.
- ... - is white but it has black spots.
- ... - is very wide and it hasn't border, usually its blue coloured.
- Without ... we can't live and breath.

Everybody likes it

(Uni hamma yaxshi ko'radi)

There are some words that have an interesting origin in every language.

The word sandwich, for example, is very common in English and we find it in many other languages, too. If we want to know how the word sandwich was born, we must know something about an English nobleman, the Earl of Sandwich, who lived in the 18th century.

The Earl of Sandwich was rich enough but he liked to play cards. He often played for twenty-four hours and did not stop even to have something to eat. He ordered his servants to bring him some meat and bread and he continued to play while he was eating. He put the meat between two pieces of bread and he held the food in his left hand, while he was playing with his right hand. People who were watching the game liked Sandwich's idea, and it soon became popular to eat bread and meat in this way.


From the name of this man, the Earl of Sandwich, we have the word sandwich today. It is one of the source of discovering sandwiches.

Prepared by Dinora SHAKIROVA



Write and Remember!

Write the names of these shapes and math symbols in English:



Umida UMAROVA

TASHRIFING MUBORAK

O, tashrifing muborak, bahor,
Tuhfa etding go'zal sehringni.
Birinchi bor eshitdim bola,
Kulgusida sehing mehringni.

Jilmayganча quyosh tong sahar,
Ayamadi bizdan nurini.
Sog'inchlari o'ktam daryolar,
Bosolmadi qalbing qo'rini.

Tabiatning turfa rangida
Chayqaladi ajib bir chaman.
Ko'zlarimga yosh va navqiron,
Bahor bo'lib ko'rinar Vatan!

Z. ZIYOMUHAMMEDOVA,
Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumanidagi 172-umumta'lim
maktabi direktori



MEN – BAHORMAN

Men – bahoroy, hayotim –
Har bir maysa ildizdir.
Kunduz moviy, tun qora,
Ko'zim to'la yulduzdir.

Qirda esgan epkinlar –
Mening mayin nafasim.
Buzib keldim o'lkaga,
Qishning sovuq qafasin.

Dilfuza MIRZAYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
63-ixtisoslashtirilgan maktab-
internatining 7-sinf o'quvchisi



SINGILCHAM

Ko'zlari qora,
Lablari lola,
Shirin gapirar,
Hali yosh bola.

Ketib qolsam gar,
Meni qidirar.
Ketib qolma, deb,
Yo'lda yugurar.

Mening izdoshim,
Yo'lda yo'ldoshim.
Singilcham mening,
Mitti Quyoshim.

Nilufar O'ROLOVA,
Surxondaryo viloyati, Qiziriq
tumanidagi 32-umumta'lim
maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi



FASLLAR KO'RKI

Gullarga burkandi daraxtlar,
Yam-yashil o'tloqdan taralar ifor.
Bahorda zavqlanib ketadi olam,
Ko'zni qamashtirar yurtimda bahor.

Biz bolalar kezdik qirlarda shodon,
Varraklar uchirib quvnamiz har dam.
Hamma yoq o'zgacha tus olgan, ishon,
Fasllar ko'rkidir yurakka malham.

Shirinabonu JUNAYDULLAYEVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
153-umumta'lim maktabining
6-«A» sinf o'quvchisi



JIMNING BOLALIGI

Valentina Skulte

Oqshom. Jim va uning oilasi stol
atrofida jamuljam. Jim hech narsa
yemayпти.

– Nega yemayapsan? – so'radi
otasi.

– Yegim kelmayпти, – dedi Jim.
– Sen unga konfet berganmiding?
– so'radi janob Deyl xotinining ko'ziga
tik boqib.

– Ha, bergandim, – dedi Deyl
xonim, – lekin uncha ko'p emas.

– Bolani taltaytirib yuboryapsan.
Unga umuman konfet berma. U
sho'rva, go'sht, baliq yeyishi kerak.

Birdaniga shu payt opasi Polli
hiqillashni boshladi.

– Senga nima bo'ldi, bolajonim? –
so'radi onasi.

– Tishim orasiga baliq qiltanog'i
tiqilib qoldi. Og'riyapti!

– Unda oynaga qarab uni olib
tashla, – dedi xonim va boshini
ko'tardi. – Voy, oyna qani, bolalar?

– dedi u hayron bo'lganча.

– Men bilmayman, – dedi Polli.

– Men ham, – dedi Jim. Shunda
ota qoshig'ini stol ustiga «taq» etib
qo'ydi va bolalarga o'girildi.

– Kim yolg'on gapirayotganini hozir

aniqlaymiz.

Janob Deyl Jimga qaradi.
Jim boshini teskari burdi.

– Bu yoqqa kel-chil! – dedi
u. – Ko'zlarimga tik

qara! Javob ber:
qachon va nega
o y n a n i
sindirding?

– Men malla
bolani jazolash kerak,
deb o'ylayman, – javob
berdi Jim.

– Qanaqa malla bola? – so'radi
onasi xavotirlanib.

– O'sha malla bola oyna ichida edi.
U meni ustimdan kuldi. Menga tilini
chiqardi, – dedi Jim.

Ota-ona bir-biriga qaradi. Keyin ota
jilmaydi.

– Yaxshi, o'g'ilginam! Bizga o'sha
malla bola haqida aytib ber!

Jim otasining jahli chiqmagan-
ligidan xursand edi. Ko'zlarini katta-
katta ochib dedi:

– Karavotda yotgan edim. Birdan
oynadan qarab turgan bolani ko'rib
qoldim. U tilini chiqardi. Mening
jahlim chiqib, pol yuvgichni unga

otdim.

– Bo'пти, o'g'ilim! O'sha malla bola
yig'ladimi? – so'radi janob Deyl.

– Ha, yig'ladi, ozgina, – javob
berdi Jim.

– Bu yoqqa kel, Jim! Men senga hozir
qiziq narsa ko'rsataman, – dedi otasi.
Uning ko'zi otasining qo'lida turgan
oynaga tushdi, unda malla bolani
ko'rdi.

– Voy, oyi, dada! – bor ovozi bilan
baqirdi u. – Bu o'sha xunuk bola!
Uni ushlang!

Ota-onasi qilt etishmadi, faqat
kulishdi, xolos.



(Hikoya)

– Yaxshi, hozir bu xunuk
bolani qanday jazola-
shimni ko'rib qo'y! – deb
otasi Jimning qulog'idan
cho'za boshladi va bu
so'zlarni qayta-qayta
takrorladi:

– Oynadan o'g'limga
qarama! Uni mazax qilma!
Yolg'on gapirma!

– Voy, dada, u bolakay
emas, men ekanman.
Boshqa yolg'on gapir-
mayman. Qulog'imni
qo'yib yuboring, –
chinqirdi Jim.

– O, siz qanday
qattiqqo'lsiz! – nola qildi
Deyl xonim.

Janob Deyl xotiniga
jahli bilan qaradi va dedi:

– Bu o'g'limga yaxshigina saboq
bo'ldi.

So'ng Jimga dedi:

– Buni esingdan chiqarma, haqiqiy
erkak hech qachon yolg'on
gapirmaydi. Yo sen yana yolg'on
gapirishni xohlaysanmi?

– Xohlamayman! – dedi u hiqillab.
– Xohlamayman!

Ingliz tilidan
Guli Ra'no HAMIDULLAYEVA
tarjimasi,
Andijon viloyati, Buloqboishi
tumanidagi 6-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

Omad kuchlilarga kulib boqdi

Har gal poytaxtimizdagi «Bunyodkor» o'yingohi oldidan o'tganimda, muhtasham inshootning ulug'vortligi, betakror ko'rinishidan hayratga tushaman. Qalbimni beixtiyor faxr-u iftixor tuyg'ulari chulg'ab oladi.

Ayniqsa, sport majmuasi qoshida barcha sharoitlarga ega futbol akademiyasining qurilib foydalanishga topshirilishi, mamlakatimizda bolalar sportiga yuksak e'tibor qaratilayotganining yorqin ifodasi bo'ldi. Quvonarlisi, bu kabi g'amxo'rlik, akademiya tarbiyalanuvchilarining xalqaro maydonlarda olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritishiga katta turki bo'layotir.

Kuni kecha Qozog'istonning Almati shahrida sobiq futbolchi Temur Segizbayev xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro musobaqada ham «Bunyodkor» jamoasining 2004-yilda tug'ilgan futbolchilari muvaffaqiyatli ishtirok etib qaytdi.

Mirkamol Qosimov va Temur Boboxonov murabbiyligidagi yosh charm to'p ustalarimiz turnirdagi ilk uchrashuvini «Temirtau» jamoasiga qarshi o'tkazib, raqiblarini yirik 11:0

hisobida mag'lubiyatga uchratdi. So'ngra «Almati» va «Aktobe» klubi tarbiyalanuvchilari bilan bo'lgan bahslarda ham futbolchilarimiz o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, raqiblarini 3:0 hisobida taslim etdi. «Toldiqo'rg'on» jamoasiga qarshi o'tkazilgan o'yin murosasiz ruhdan kechgan bo'lsa-da, yakunda baribir yosh bunyodkorchilar g'alabani tantana qildilar. So'nggi bellashuvda «Qayrat» jamoasi bilan durang qayd etgan jamoamiz umumiy natijalarga ko'ra 1-o'rinni egalladi.

Musobaqa yakunda tashkilotchilar tarbiyalanuvchilarimizdan Bayram Najafaliyevni turnirning eng yaxshi darvozaboni va Azizbek Mahammadjonovni eng yaxshi futbolchisi, deb topishdi.

Jamoamizning g'alabasiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shganimdan xursandman, – deydi Azizbek. – Kelajakda Sardor Rashidov, Odil Ahmedov, Server Jeparov kabi kuchli futbolchi bo'lib, O'zbekiston milliy terma jamoasi sharafini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilmoqchiman.

Ushbu muvaffaqiyat bilan «Bunyodkor – 2004» futbolchilari va jamoa murabbiylari Mirkamol Qosimov hamda Temur Boboxonovni muborakbod etamiz.



Yaqinda poytaxtimizdagi «Chilonzor» stadionida xotira turniri bo'lib o'tdi.

Musobaqada 2005-yilda tug'ilgan yosh futbolchilar ikki guruhga bo'lingan holda o'zaro kuch sinashdi.

Barcha raqiblarini dog'da qoldirgan Baxtiyor Nuraliyev boshchiligidagi «Paxtakor» klubi tarbiyalanuvchilari hal qiluvchi final bellashuvida «Lokomotiv» jamoasini 1:0 hisobida mag'lub etib, musobaqa g'olibiga aylandi. 3-o'rin Respublika olimpiya zaxiralari kolleji futbolchilariga nasib etdi.

Sa'dullo TURSINOV

NAFOSAT OLAMI

Kuni kecha poytaxtimizda o'smir qizlar va bolalar o'rtasida «Nafosat olami» shiori ostida «Sog'lom avlod uchun» kubogi V Respublika sport festivali musobaqalari bo'lib o'tdi.

Unda sportning suzish, sinxron suzish, suvga sakrash va sport raqsi turlari bo'yicha har bir jamoa tarkibida 3-10 nafardan ishtirokchi qatnashdi. Jami 150 nafardan ortiq 2005–2010-yillarda tug'ilgan qizlar va o'g'il bolalar o'z toifalarida kuch sinashdi.

Festivalni o'tkazishdan asosiy maqsad o'smirlarni jismonan baquvvat, barkamol va sog'lom bo'lishiga, chiniqishiga hamda sport bilan shug'ullanishga keng jalb qilib, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishdir.

Turnir g'oliblari tashkilotchilar tomonidan diplom va sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shavkat KAZAKBAYEV



G'OLIBLAR ANIQLANDI

«Bunyodkor» va «Nasaf» klubi tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi final uchrashuvning asosiy vaqtida hisob ochilmadi. Penaltlar bahsida nasafchilar g'alaba qozonib, turnir bosh sovrinini qo'lga kiritdi. «Andijon» jamoasi futbolchilari «Buxoro» vakillarini 2:0 hisobida mag'lubiyatga uchratib, 3-o'ringa loyiq topildi.

«Nasaf» jamoasi vakili Elnur Jariqulov «Eng yaxshi to'purar», Abduvohid Ne'matov esa «Eng yaxshi darvozabon», «Bunyodkor» jamoasi tarbiyalanuvchisi Muzaffar Olimjonov «Eng yaxshi o'yinchi», andijonlik Pahlavon Komiljonov «Eng yaxshi yarim himoyachi» hamda buxorolik Ibrohim Ibragimov «Eng yaxshi himoyachi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Shukrulla G'ULOM

Poytaxtimizda futbol bo'yicha 2001-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida «Navro'z kubogi – 2016» turniri bo'lib o'tdi. Unda sakkiz jamoa o'zaro bellashdi.

«BOYCHECHAK»NING QUVONCHI

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabida turli fanlar qatorida jismoniy tarbiya faniga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois, sportning voleybol, basketbol, futbol, stol tennis, badiiy gimnastika, shaxmat-shashka singari to'garak a'zolari tuman va shahar miqyosida o'tkazilayotgan sport bellashuvlarida sovrinsiz qaytishmaydi.

Yaqinda boshlang'ich sinflar o'rtasida «Onam va men – birgimiz har dam» shiori ostida musobaqa tashkil etildi. «Boychechak» va «Binafsha» nomi ostida 24 nafar ona va bola ikki guruhga bo'lingan holda beshta shart bo'yicha o'zaro bellashdi. Qiziqarli va murosasiz o'tgan musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra, 130:128 hisobida «Boychechak» jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Ta'lim muassasamizda jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratilgan, – deydi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Vasila Allayeva. – Bugungi bellashuv ham qaysidir ma'noda sportni o'g'il-qizlar orasida, oilalar o'rtasida ommalashishini ta'minlaydi.

Shoh MUHAMMAD



KITOBNING SEHRLI DUNYOSI

Aziz o'quvchi! Tomda yashaydigan quvnoq Karlson haqidagi asarni yoki multfilmni sevib tomosha qilmaydigan bola topilmasa kerak. Uning muallifi Astrid Lindgren bir choqoch kitob bilan shoshib ketayotgan chog'i, tanishlaridan biri so'rabdi:

- Yo'l bo'lsin. Shoshilib qayerga ketyapsiz? Nafasini rostlagan yozuvchi qo'lli bilan to'g'riga ishora qilibdi:
- Ana u yerda bir to'da bolalar to'planib turishibdi. Ularning kitobi bormikan?



N. SULTONOV olgan surati

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 219-umumta'lim maktabidagi «Bir bolaga uch kitob» aksiyasini kuzatar ekanman, beixtiyor yuqoridagi voqea yodimga tushdi. Tajribali pedagog Ra'no Rahimova rahbarlik qilayotgan bu maskanda yoshlarning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiluvchi bunday tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Maktab kutubxonachisi Dilfuza Botirjonova

ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etgan anjuman kutilganidan ham ziyoda o'tdi. Har tanaffus chog'ida o'quvchilarning turli-tuman kitoblar jamlangan peshtaxtalar atrofini bolarilardek o'rab olib, kitob tanlayotganlarini kuzatish nihoyatda maroqli edi. Yana bir ahamiyatga molik jihati, tadbir doirasida O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bilan ham ijodiy uchrashuv tashkil etilishi anjumanga o'zgacha zavq bag'ishladi. Unda Naima Tolipova rahbarligidagi 6-«A» va Nilufar Atamurodovning 6-«B»dagi shogirdlari «Yosh kitobxon» va «Adabiyotshunos» guruhlariga bo'linib, o'zaro bellashdilar.

Shuningdek, yosh kitobxonlar tomonidan adibning asarlari bugungi kunda dunyoning 28 tiliga tarjima qilingani faxr bilan e'tirof etilganida, tomoshabinlar olqishidan zal larzaga kelgandek bo'ldi. Asosiysi esa, o'sha kuni o'quvchilar kitoblarning sehrliligi dunyosiga sayohat qilib, olam-olam taassurotlarga ega bo'ldilar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Feruza opa Mirzayeva aytganidek, bugun ularning xonadoniga yangi kitoblar kirib boradi. Ulardan taraladigan nurlar esa ma'naviyat bog'larini gullab-yashnashiga xizmat qiladi.

Yusuf ABDULLAYEV

«SOG'LOM BOLA – BOY BOLA» tanloviga

O'z yurtida posbon bo'lar



Sohibqiron avlodlari,
Navoiyning bayotlari.
Istiqlolning qanotlari,
Sog'lom bola boy boladir.

O'qish, ishda doim a'lo,
Har bir so'zidir purma'no.
Bilimdon, zukko va dono,
Sog'lom bola boy boladir.

Bir kun buyuk inson bo'lar,
Nomi elga doston bo'lar.
O'z yurtida posbon bo'lar,
Sog'lom bola boy boladir.

Umida SULAYMONOVA,
Navoiy viloyati, Konimex tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi



BEBAHO SOVG'A

Har yili sinf-doshlarim bilan ko'plab tadbirlar uyushtiramiz. Bu ishda bizga sinf rahbarimiz Muqaddas opa Doliyeva yaqindan yordam berib, bosh-qosh bo'ladilar.

Qishki ta'til boshlanishidan oldin har birimizga turli xil kitoblar sovg'a qildilar.

Uyga kelgach, kitobni zavq bilan varaqlay boshladim. Undagi har bir so'zga alohida e'tibor berdim. Asardagi ijodkorning bir savolga javobi menga juda yoqdi:

Hayotdagi eng katta orzuyingiz nima?

Eng katta orzuyimmi?.. Shunday asar yozsang-ki, kitobxon uni o'qiyotganida hamma narsani unutib, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni aqalli bir kecha uxlolmasa.

...Oradan yillar o'tib, o'sha kitobni yana qo'lga olganida qaytadan hayajonga tushsa, undan yangi ma'nolarni topsa...


Aniq ayta olamanki, bugun yozuvchining eng katta orzusi ushalmoqda. Bu ijodkor kitobxonlarning qalbidan chuqur o'rin olgan yozuvchi O'tkir Hoshimovdir. Ustozim sovg'asi esa sevimli yozuvchimizning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobi edi. Bu bebaho sovg'a men uchun juda qadrlil.



Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

KROSSVORD



1. Braziliyaning poytaxti?
2. Maydoni katta davlat qaysi?
3. Ufq tomonlaridan birining nomi?
4. Dunyodagi eng baland cho'qqi?
5. Eng kichik materik?

6. Yerning tabiiy yo'ldoshi?
7. Maydoni eng kichik davlat?

Ruslan MATYOQUBOV,
Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

«QIZIL LAVLAGI» SALATI

Bahor oylarida kishi organizmi turli kasalliklarga chaluvchan, nozik bo'lib qoladi. Bunday paytda bizga to'g'ri ovqatlanish hamda damdorilarga boy salatlar tanovul qilish kerak bo'ladi. Bugun sizlarga tavsiya qilayotgan salatimiz ham ana shunday xislati bilan ajralib turadi. Buning uchun bizga:

ikkita o'rtacha kattalikdagi qizil lavlagi, ikki dona sarimsoqpiyoz bo'laklari, tuz, 100 gramm qattiq pishloq, 3 qoshiq mayonez kerak bo'ladi.

Tayyorlanishi: lavlagilarni tuzli suvda qaynatib pishiramiz. Ularni sovutishga qo'yib, sarimsoqpiyoz hamda qattiq pishloqni qirg'ichning mayda tishidan o'tkazamiz. Lavlagini po'stlog'ini artib, qirg'ichning o'rtacha kattalikdagi tishidan o'tkazamiz. Endi hamma masalliqni chuqurroq idishga solib, mayonez bilan aralashiramiz. Xushxo'r va damdorilarga boy salatimiz tayyor.

Yoqimli ishtah!



NARGIZA tayyorladi

8

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

11-aprel 2016

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJABOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Manzilibiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda
ISSN 2010-6092
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10
Adadi – 50083
Buyurtma – S 5640